

# O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**  
**«SILIKAT MATERIALLAR, NODIR VA KAMYOB METALLAR**  
**TEXNOLOGIYASI» KAFEDRASI**

## **HISOB – IZOH YOZUVI**

**Bitiruv ishi mavzusi: Mis buyumlarini ishqalanishga chidamli nikel-xrom qoplamasi bilan qoplash jarayoninig material balansi va elektroliz sexining loyihasi**

**Kafedra mudiri**

**prof. Aripova M.X.**

**Rahbar**

**Maslahatchilar:**

**dots. Babaxanova Z.A.**

**Texnologik qism**

**dots. Babaxanova Z.A.**

**Iqtisodiyot bo'limi**

---

**Avtomatlashtirish**

---

**Mehnat muxofazasi**

---

**Ekologiya**

---

**Fuqaro muxofazasi**

---

**Bitiruv ishini bajaruvchi**

---

**Toshkent – 2016 y.**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI**

**«Silikat materiallar, nodir va kamyob metallar texnologiyasi» kafedrasi**

**«TASDIQLAYMAN»  
Kafedra mudiri  
prof. Aripova M.X.**

**MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO'YICHA TOPSHIRIQ**

Talaba \_\_\_\_\_ **Faxodov Bobur Farxod o'gli**

Bitiruv ishining mavzusi: **Mis buyumlarini ishqalanishga chidamli nikel-xrom qoplamasi bilan qoplash jarayonining material balansi va elektroliz sexining loyihasi**

7 oktyabr 2016 yilda kafedraning 7 – sonli majlisida ma'qo'llangan.  
Bitiruv ishini topshirish muddati \_\_\_\_\_

Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang'ich  
ma'lumotlar \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

Xisoblash – tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar ro'yxati) **1. Kirish. 2. Loyixani texnik – iqtisodiy asoslash. 3. Ishlab chiqarilayotgan maxsulotga qo'yiladigan texnik talablar. 4. Ishlab chiqarishdagi fizik-kimyoviy jarayonlarnining nazariy asoslari. 5. Xom ashyo materiallar ta'rifi va ularga qo'yiladigan talablar. 6. Moddiy balans xisobi. 7. Ishlab chiqarish usulini tanlash. 8. Ishlab chiqarishning texnologik tizimini tanlash va uning bayoni. 9. Texnologik jixozlarni tanlash, ularning texnik ta'rifi va xisobi. 10. Issiqlik qurilmasining issiqlik texnik xisobi. 11. Ishlab chiqarishning nazorati. 12. Ekologik qism. 13. Mehnat muxofazasi. 14. Fugorolar muxofazasi. 15. Avtomatlashtrish qismi. 16. Iqtisodiy qism. 17. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

Chizma ishlar ro'yxati (chizmalar nomini aniq ko'rsatiladi) \_\_\_\_\_

### **Bitiruv ishi buyicha maslaxatchilar**

No	Bo'limlar nomi	Maslaxatchi (F.I.O.)	Topshirik berildi (imzo sana)	Topshirik bajarildi (imzo sana)
1.	Texnologik qism			
2.	Iqtisod			
3.	Avtomatlashtirish			
4.	Mexnat muxofazasi			
5.	Ekologiya			
6.	Fuqaro muxofazasi			

### **Bitiruv ishini bajarish rejasi**

No	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi
1	<i>Kirish. Loyixani texnik – iqtisodiy asoslash.</i>		
2	<i>Ishlab chiqarilayotgan maxsulotga qo'yiladigan texnik talablar.</i>		
3	<i>Ishlab chiqarishdagi fizik-kimyoviy jarayonlarnining nazariy asoslari.</i>		
4	<i>Xom ashyo materiallar ta'rifi va ularga qo'yiladigan talablar. Moddiy balans xisobi.</i>		
5	<i>Ishlab chiqarish usulini tanlash. Ishlab chiqarishning texnologik tizimini tanlash va uning bayoni.</i>		
6	<i>Texnologik jixozlarni tanlash, ularning texnik ta'rifi va xisobi.</i>		
7	<i>Issiqlik qurilmasining issiqlik texnik xisobi. Ishlab chiqarishning nazorati.</i>		
8	<i>Ekologik qism. Mehnat muxofazasi.</i>		
9	<i>Fuqarolar muxofazasi.</i>		
10	<i>Avtomatlashtirish qismi.</i>		
11	<i>Iqtisodiy qism. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.</i>		

Bitiruv ishi raxbari \_\_\_\_\_

(familiyasi, ismi, sharifi)

(sana)

Topshiriqni bajarishga oldim **Faxodov Bobur Farxod o'gli** \_\_\_\_\_

Topshiriq berilgan sana **yil.**

## **Mundarija**

1. Kirish.....	5
2. Texnik – iqtisodiy asoslash.....	8
3. Ishlab chiqarilayotgan maxsulotga qo'yiladigan texnik talablar .....	11
4. Elektroliz jarayonining nazariy asoslari.....	13
5. Xom ashyo materiallar ta'rifi va ularga quyiladigan talablar.....	26
6. Moddiy balans hisobi .....	28
7. Ishlab chiqarish usulini tanlash.....	33
8. Ishlab chiqarish texnologik tizimini tanlash va uning bayoni. ....	35
9. Texnologik jixozlarni tanlash, ularning texnik ta'rifi va xisobi .....	43
10.issiqlik qurilmasining issiqlik texnik hisobi .....	52
11. Ishlab chiqarish nazorati .....	55
12. Ekologik qism .....	57
13. Mehnatni muxofaza qilish.....	65
14. Fuqaro muxofazasi .....	68
15. Avtomatlashtirish qismi .....	72
16. Iqtisodiy qism.....	76
17. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. ....	81

## 1. KIRISH

Metall va uning qotishmalaridan tayyorlangan asbob-uskunalar, quvurlar, rezervuarlar va boshqa konstruksion materiallar ishlashlari davomida korroziyalanib (zanglab, yemirilib, parchalanib) xalq xo'jaligiga katta zarar keltiradi. Masalan , AQSH ning neft- gaz sanoati korroziya natijasida; 2014- yil 75 milliard dollar; 2015-yil esa 150 milliard dollar ziyon ko'rgan. Bunday misollarni ko'plab keltish mumkin. Respublikamiz mustaqilligidan keyingi sanoat tarmoqlarining keng miqyosida rivojlanishi natijasida zamonaviy texnologiyalar usullari jihozlar va uskunalar ishlab chiqarishda foydalanilmoqda. Jihoz va uskunalardan foydalanish davomida ularning ish qobiliyatini saqlash, ishonchli ishlanishi ta'minlash uchun ularni korroziyadan himoya qilish dolzarb vazifalardan biridir .

Ayniqsa atmosferaning har xil korrozion- faol moddalar bilan umumiylifloslanishi , hamda neft va gaz maxsulotlarini qazib olish, saqlash va transport qilishda ishlab beriladigan maxsulotlarning uziga xos xususiyatlari shu sohada qullaniladigan jihozlarning korroziyabardoshliligini oshirishni talab qiladi.

Korroziya - metallarning korrozion muxitlar bilan kimyoviy yoki elektrokimyoviy o'zaro ta'siri natijasida yemirilish jarayonidir . Korrozion muhit- metallarning korrozion jarayonlar sodir bulishiga olib keladigan agressif atmosfera , kislotalar eritmalar , ishqorlar , tuzlar va boshqa muhitlardir . Ko'pgina metallar agressif muhitlar ta'sirida termodenamik noturg'un bo'lganligi uchun oksidlangan xolatda utadi va yemiriladi . Metallarning korrozion jarayonlar kechishi natejasida masalalari kamayadi , zaruriy texnologik xossalari; mexanik mustahkamligi; plastikligi; qattiqligi kabi xossalari uzgaradi.

Korroziya detallarning va mexanizmlarning ish qobiliyatining pasayishi va va ishdan chiqishiga olib keluvchi asosiy yemiruvchi omillardan biri hisoblanadi . Korroziya natijasida yo'qotishlarni bevosita va bilvosita usullarga bo'lish mumkin. Bevosita korroziyadan yo'qotishga buymamlarni

himoyalash uchun qilinadigan sarf – xarajatlar va metallning ish qobiliyatini yuqotish natijasida tuliq ishdan chiqishi hozirgi vaqtida yiliga 10- 15% ini tashkil etadi .

Bilvosita korroziyadan yuqotishga jihozlarning ish unumdorligi kamayishi natijasida ishlab chiqarilayotgan maxsulot sifati va xajmi kamayishi , hamda metallarning sarfining oshishi kiradi. Neft va gaz sanoatida korroziya natijasida ko'pgina jihozlarning ish unumdorligini kamayishi va ishdan chiqishi kuzatiladi.

Ayniqsa quvurlar, jumraklar va rezervuarlar shular jumlasidandir. Metallarning korroziyaga qarshilik korsatish qobiliyati korroziyabardoshlik deyiladi. Metall va ularning qotishmalari har xil haroratlari sharoitlarda va har xil tashqi muhitlarda turlicha korroziyabardoshlikka ega boladi.

Shuning uchun korroziyaga qarshi ximoyalash O'zbekistonda mashinasozlik rivojlanishi uchun muhim hisoblanadi. Asosi maqsad - metal va qotishmalarining ichki va tashqi muhitlarga bog'liq ravishda korroziyaga uchrashi va ulardan ximoyalanishi usullarini tadbiq qilishni o'z oldiga maqsad qilib quyadi. Korroziyaga qarshi himoya usullari konstruksion, texnologik va foydalanish davridagi tadbirlarga bulinadi va uning usullari korrozion eksperimental tadqiqotlar asosida ishlab chiqiladi.

Respublikamiz iqtisodiyotini liberallashtirish va modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish samaradorligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini jadal yangilash masalalariga etibor xozirlash ayniqsa jahon, moliyaviy iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlaridan saqlanish davrida dolzarb masalaga aylanib bormoqda.

Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar quyidagi meyoriy xududiy hujjatlar negizida bajarilmoqda:

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2014-2015 yillarda ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnikaviy texnologik qayta jixozlash bo`yicha eng muhim loyihalarni turi to`g`risidagi qarori:

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2013-2015 yillarda O'zbekiston Respublikamiz rivoji va jahonda yanada obro`ga ega bo`lishi uchun faqat o`z

kuchimizga, o`z salohiyatimizga tayanib ish ko`rishimiz kerak. O`zimiz xarakat qilmasak chetdan kelib birov yordam bermaydi, degan deyarli xar bir ommaviy chiqishimizda mano-mazmuni singib ketgan davatkor so`zlar bugungi kunda hayotimizda amal ko`rsatish vaqtি keldi.

Mamlakatimizda mehnat resurslaridan tabiiy va meniral xom-ashyo boyliklaridan yer osti boyliklaridan tabiiy moddalardan oqilona foydalanish o`z teritoriyasida iqtisodiy va ijtimoiy madaniy taraqiyotni kompleks ravishda rivojlantirish, muassasa va tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish, mexnat xavfsizligini atrof muhit muhofazasini axolining extiyojlarini taminlash masalalari dolzarbdir.

Bugun xalq milliy ongining o`sishi mamlakatimizning milliy davlat ijtimoiy rivojlanishining xozirgi zamon darajasi yangilanish va qo`shni davlatlar bilan o`rtadagi aloqa xamda vakolatlarni yanada aniqroq belgilanishi talab etilmoqda.

O`zbekiston tabiiy va xom –ashyo resurslariga boy. Bularning xammasi yer, suv, o`rmon va yer osti boyliklari respublikamiz va xalqimizning ajralmas bo`lagi, mulki bo`lishi kerak, lekin anashu tabiiy boyliklardan o`ylamay netmay tez o`sib borayotgan axolining extiyojarini qondirish juda murakkab masaladir.

O`zbekiston zamini ostidag`oyat katta boyliklar yashirinib yotibdi. Respublika xali juda ko`p yillar mobaynida xom-ashyolardan foydalanish imkoniyatlari bor.

## 2. Texnik – iqtisodiy asoslash.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarda korroziyadan keladigan xar yilgi zarar milliy daromadning 3 - 4 % ni tashkil etadi, shuning uchun korroziyaga qarshi kurash, uning oldini olish muhim ahamiyatga egadir. Buning uchun esa metallarni tashqi muxit bilan uzaro ta'sir etish shartlari, uning sabablari va umumiyl qonuniyatlarini bilish zarur.

Malakaviy bitiruv ishining maqsadi – yirik mis buyumlarni korroziydan va ishqalanishdan himoyalash uchun nikel-xrom qoplamasi bilan qoplash jarayonining material balansi va elektroliz sexining loyixasi.

Elektrokimyo sanoatida galvanotexnika yo`nalishi detallarga qoplamlar yaratish bo`yicha asosiy bosqich xisoblanadi. Elektroliz usulda metallarni yuzasini turli metal va qotishmalar bilan himoyalash mustahkamligini oshirish va karroziyadan saqlash uchun qoplamlar qoplanadi.

Bugungi kunda Respublikamizda bozor iqtisodiyotiga o`tish, moliyaviy barqarorlik va o`sishning eng muhim shartlaridan bo`lgan mikro iqtisodiy proporsiyalar sanoat va ishlab chiqarishning turli soxalarda keng ko`ramda ish olib borishni talab etmoqda. Nikel-xromli qoplamlar olish xrom elektrokimyo sohasida asosiy ishlardan biridir. Chunki korroziya va ishqalanishga qarshi o`ta chidamli hususiyatga ega bo`lgan qoplamlar yaratish ishlab chiqarish va rivojlanish uchun muhumdir.

Bu masalalarni xal etar ekanmiz, O`zbekiston kelajagi ertangi kuni yanada yaxshiroq, bo`lishi imkoniyatlarga ega bo`lamiz. Materiallarning kimyoviy xususiyatlarini yanada yaxshilash yangi qoplamlar va ular o`rtasidagi bog`liqliklarni o`rganish muhimdir.

Mis buyumarini nikel-xromli qoplamlar olishda elektrolitlarni tanlash va maxsus yaltiroq, silliq qoplamlar yaratish uchun bajariladigan loyixaviy nazariy ishlar uslubi ishda ko`rsatilishi kerak.

Loyixalash jarayonida texnik iqtisodiy asoslash uchun nikel-xromli qoplamlar bugungi kunda Respublikamizda xom-ashyolarning borligi ularni olish

jarayonlarini kamxarjligi mustaxkam qoplanishi sanoat chiqindilarining nikel va xrom briklmalarini tayyor xolda olish va tozalash jarayonlarining mukammal o`rganilganligi ushbu ikki qavatli qoplama olish imkoniyatlari kengligini ko`rsatib beradi.

Elektroliz jarayonlarida xosil bo`ladigan ishlatilgan elektrolitlarning zararsizlantirish xolatlarini xam kimyoviy reagentlar sarflab Respublikamizda ishlab chiqariladigan reagentlarni qo`llash ushbu bajariladigan qoplama olish jarayonida alohida komponentlar taylorlanib ularni vannada elektrolit tartibini yaratish bilan umumlashtiriladi. Ushbu usulda jarayonlar boshqarilib qoplamlar olinsa ish sifati yaxshilanib iqtisodiy samaradorligi oshadi.

Mis buyumlrini nikel-xromli qoplamlalar olishda elektor energiyasini berilgan sharoitga moslab ish rejimini tashkil etish tok unimdorligini oshirish mumkinligini ko`rsatadi. Bu xolat xam galvano texnik jarayonlarda xarakatlarni kamaytirish vazifalarini belgilaydi. Jarayonlar borishda eng qulay sharoitlardan foydalanish ishini bajarish davomida uni ishlab chiqarishda qo`llash ishining iqtisodiy ko`rsatgichlari yuqori bosqichda bo`lishini ko`rsatadi. Nikel-xrom qoplamlarini olishda iloji boricha tozalangan reagentlardan foydalanish sifatli qoplama yaratishga yo`l ochib beradi. Xar bitta bosqichda olib boriladigan eng oddiy ishni olib borish jarayoni rejim bo`yicha bajarilish kerak. Shunday xolatdagina kam sarf xarajatli texnologiya bilan yuqori texnik iqtisodiy ko`rsatgichlarga erishish mumkin.

Ishni bajarishda texnik iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun texnologik sxemani o`zgartirmsdan komponentlarni zarur miqdorda yuklab, jarayonning zarur bo`lgan vaqtdan boshlab tugatish ishning tayyor darajasida borishini ko`rsatadi.

Nikel-xromli galvanik qoplamlalar mis detallarni korroziyadan ximoyalashda keng qo'llaniladi.

Nikel-xromli qoplamlalar bir necha avzalliklarga ega:

1. Yuqori edirilishga bardoshliligi.
2. Yuqori qattiqlik.
3. Nisbatan yuqori qovushqoqlikka ega.

4. Yuqori dekorativ xususiyatlarga ega
5. So'nggi dekorativ qoplama sifatida qo'llash mumkinligi.

Shunga qaramay sanoatda nikel-xromli qoplamlardan keng ko'lamda foydalilaniladi. Keltirilgan avzallik xisobga olganda nikel-xromlash quyidagi hollarda ishlatiladi:

- funktsional,
- korroziya bardosh,
- ishqalanishdan ximoyalash va dekorativ qoplamlarda.

Mashina detallarni nikel-xrom bilan qoplashni yo'lga qo'yish orqali respublikamiz iqtisodiyoti rivojiga salmoqli va juda katta hissa qo'shadi.

3. Ishlab chiqarilayotgan maxsulotga qo'yiladigan texnik talablar.  
Buyumni qoplagandan so`ng ustki ko`rinishga talablar  
Metall qoplamlarga qoyiladigan talablar GOST 9.306-85 da keltiligan.  
Galvanik qoplama turi va uning qalinligi GOST 9.303-84 ga muvofiq olib boriladi.

Tashqi ko'rinishi va kimyoviy tarkibiga, ximoya xossalari va g'ovakliligiga ko'ra qoplamlar GOST 9.301-78 ga muvofiq bo'lishi kerak. Qoplamlar asosiy metallar bilan birikish mustaxkamligi bo'yicha GOST 9.302-79 ga muvofiq kelishi kerak.

Qoplama qalinligi loyiha hujjatlarida keltirilgan talablarga mos kelishi kerak.

1. Buyumlar ximoya yuzasi bo`lishi kerak, pufakchalarsiz, baland past qatlamlarsiz, nuqtalarsiz, ochiq joylarsiz.
2. Buyumlar korroziyaga bardoshli bo`lishi kerak. Qoplama uzlusiz qatlamda xrom blan qoplangan bo`lishi, g'ovakli, mayda kristalli tuzilishi kerak.
3. Bezakli ximoya qoplami rangi jilolanmagan xolati kumush-kulrang bo`ladi.
4. Jilolangan (silliqlangan) qoplama rangi kumush zangora rangda bo`ladi.
5. Qattiq (chidamli) qoplama rangi och-kulrang ko`kintir tusda bo`ladi.

### **Nikel qoplama uchun talablar**

Nikel qoplamaning rangi kumush-oq sariq tusda.

Ruhsat berilmaydi: Buyumga qoplama yetishmasligi, chizmada belgilangan joylardan tashqari; butunlay boshqa, buyumlarni o`tkir bo`rtirilgan ko`rsatilgan chekalaridan tashqari; pufakchalar, qora chiziqlar, sariq dog`lar, suv dog`lari izlari; notekis yaltirash, jilolashda (silliqlashda) suz tuzi izlari.

Buyumning nikel qoplama qatlam qalinligi tomchilash yo`li bilan aniqlanadi. Bir tomchi suvni ushlab turish vaqt -30 sekund. Qoplama qalinligi 30 sekundda olinadi. harorati 18-25 ° C mos ravishda 0.67-0.75 mkm. Qoplama qalinligi loyiha hujjatlarini talablariga muvofiq.

### **Xrom qoplama uchun talablar**

Xrom qoplamasining rangi silliqlashsiz kumush-kulrangda.

Jilolangan (Silliqlangan) rangi esa kumush ko`kimir tusda bo`ladi. Qattiq (chidamli) qoplama rangi och-kulrang ko`kimir tusda bo`ladi.

Ruhsat etilmagan: qoplama yetishmasligi, belgilangan joylardan tashqari, chizmada belgilangan va buyumlarni osma ilgak ilingan joylardan tashqari; buyumlarni o`tkir bo`rtirib ko`rsatilgan chekalaridan tashqari; agar bu tugunlarni yeg`ishda xalaqt bermasa; qora chiziqlar va dog`lar; notejis yaltirash, jilolashda (silliqlashda) pufakchalar, suz tuzi izlari.

Nikel-xrom qoplamlar qoplash jarayonida texnik sharoit talablari bo`yicha jarayon olib borish zarur, hosil bo`lgan qoplama yaratilgan maxsulot bezak sifatida yoki korroziya yemirilishidan yuzani asrash maqsadida yaratilgan bo`ladi.

Qoplama turli tashqi tasirlarga bardosh beradigan mustahkamlik darajasi mahsulotning o`z materialiga nisbatan atrof muhit tasiriga chidamli bo`lishi zarur, mahsulot ko`rinishi o`lchamlarni qoplamaning qoplanganligi va boshqa turli parametrlar bo`yicha ko`rilganda talab etilgan qallinlik elektrokimiyoviy usulda olingan qoplamlar uchun juda yupqa qalinlikdan bir necha 100 mkm gacha qalinlikda bo`ladi. Ushbu hosil qilingan ikki qavatli nikel-xrom bazi texnologik sxemalarda avtomatik tizimda alohida-alohida yaratilishi mumkin. Boshqa holatlarda esa elektrolit aralash holatda tayyorlanib reaksiya jarayonida ikkita metal birdaniga qoplama hosil qiladi.

Nikel-xrom qoplamlar olishda nikelning miqdori 35-40 % gacha bo`lib qoplamaning qattiqligi 5-7 GPa eksplotatsiya qilish jarayonida harorat  $300-350^{\circ}\text{C}$  gacha bo`lganda eksplotatsiyaga yaroqli qoplama bo`lishi va  $\text{NCL}$ ,  $\text{H}_2\text{SO}_4$ ,  $\text{HNO}_3$  kuchsiz eritmalariga chidamli bo`lib, konsentrangan  $\text{NCL}$  va  $\text{H}_2\text{SO}_4$  kislotalarida tez korroziyalanib yog`larda mustahkamlik darajasiyuqori bo`lish hususiyatlarini qoplama o`zida namoyon qilishi talab etiladi.

Nikel-xromli qoplamlar turli tasirlarga yetarli darajada chidamli, ishqalanishga chidamli va muhitga qarab yemirilish darajasi past bo`lishi talab etiladi. Shuningdek galvanik usulda olinayotgan bunday qoplamlar elektrolit tarkibining aynan bir xil bo`lishi ham qoplama sifatiga sezilarli darajada tasir ko`rsatishini aniqlash mumkin.

#### 4. Elektroliz jarayonining nazariy asoslari.

Elektroliz jarayoni.

**Qizdirib suyuqlantirilgan elektrolit yoki uning suvdagi eritmasi orqali elektr oqimi o'tganda sodir bo'ladigan oksidlanish – qaytarilish jarayoni elektroliz deb ataladi.**

Elektrolizni amalga oshirish uchun o'zgarmas tok manbaidan foydalinadi.


Elektrodlar ikki xil bo'ladi:

1. Erimaydigan – ularga garafit, platina, oltin kiradi (Erimaydigan elektrodlar kimyoviy jarayonda ishtirok etmaydi, ular faqat elektron o'tkazgich vazifasini o'taydi.);

2. Eriydigan elektrodlar jumlasiga yuqorida ko'rsatilgan metallardan boshqa hamma metall elektrodlar kiradi. Bu elektrodlar elektrolizda anod sifatida kullanilganda eritmaga o`z ionlarini berib, erib ketadi.

Ma'lumki, har qanday elektrolit eritmasi kation va anionlardan tashqil topgan bo'ladi. Kation va anionlar eritmada tartibsiz harakatda bo'ladi. Agar ana shunday eritmaga musbat va manfiy elektrodlar (anod va katod) tushurilsa eritmadagi ionlar harakati ma'lum tartibga kiradi: anionlar anodga, kationlar katodga tomon harakat qiladi. Kationlar katodga borib, undan elektron oladi, anionlar esa aksincha ortiqcha elektronlarni anodga beradi, katodda qaytarilish, anodda oksidlanish jarayoni sodir bo'ladi. Natijada, elektroliz mahsulotlari erkin holda ajralib chiqadi yoki o'zaro (yoki erituvchi bilan) kimyoviy reaksiyaga kirishadi. Ko'pincha, tuz, kislota va ishqorlar elektroliz qilinganda, o'sha moddalar tarkibiga kirgan elementlar ajralib chiqmasdan, katodda vodorod va anodda kislorod ajralib chiqadi. Masalan:  $K_2SO_4$ ,  $KNO_3$ ,  $KOH$ ,  $H_2SO_4$  kabi moddalarning eritmalari elektroliz qilinganda vodorod va kislorod ajralib chiqadi. Buning sababi shundaki, eritmada elektrolit ionlari bilan birga suv ionlari ( $H^+$  va  $OH^-$ ) ham bo'lib, vodorod ionlari katodga, gidroksid ionlari esa anodga tomon harakat qiladi. Shunday qilib, katodga ikki ion: metall ioni va vodorod ioni kelib neytrallanishi mumkin. Bulardan qaysi birining avval neytrallanishi ularning

standart potentsialiga, kontsentratsiyasiga va ba'zan elektrod qanday moddadan iboratligiga bog'liq bo'ladi. Umuman, **metall o'z elektronlarini qancha oson bersa, uning ionlari shuncha qiyin neytrallanadi.** Shu sababdan, metallarning kuchlanishlar qatorida vodoroddan chapda turgan K, Na, Ca, Mg va Al metallarining birikmalari elektroliz qilinganda katodda gaz holatidagi vodorod ajralib chiqadi




chunki bu metallarning standart elektrod potentsiallari bilan vodorodning potentsiali orasida katta farq bor. Vodorod ajralib chiqqan sari eritmadi suvning yangi molekulalari dissotsilanaveradi, buning natijasida katod yaqinida gidroksid ionlari to'planib, eritma ishqoriy reaktsiyaga ega bo'ladi. Shu sababli osh tuzi eritmasi elektroliz qilinganda katod yaqinida NaOH hosil bo'ladi. Natriyga nisbatan inert bo'lgan elnektdrodlarda (masalan, platinada) avval natriyning zaryadsizlanishi mumkin emas. Lekin katod natriyga nisbatan indifferent bo'lmasa, katodda natriy ajralib chiqqa oladi, masalan, osh tuzi eritmasini elektroliz qilishda katod sifatida simob elektrod ishlatsa, katodda natriy amalgamasi hosil bo'ladi.

Metallarning kuchlanishlar qatorida rux bilan vodorod orasidagi me-tallar birikmalarining elektrolizi juda ajoyib boradi. Masalan, rux xlorid eritmasi elnektdroli qilinganda, nazariy jihatdan olganda, rux ajralib chiqmasligi lozim edi, chunki ruxning standart potentsiali  $E^0 = -0,76$  B. Vaholanki, katodda rux ajralib chiqadi. Buning sababi shundaki, rux elektrodda vodorod ajralib chiqishi qiyinlashadi.

Temir, nikel birikmalarining elektrolizida ham shu hodisa yuz beradi. Bularda o'ta kuchlanish hodisasi katta rol o'ynaydi.


Ma'lumki, manfiy ionlar, shu jumladan, gidroksid ionlari ham, anodga tomon harakat qiladi. Agar manfiy ion tarkibida kislород bo'lsa (masalan,  $\text{NO}_3^-$ ,  $\text{SO}_4^{2-}$ ,  $\text{CO}_3^{2-}$  va hokazo), elektroliz vaqtida anodda gazsimon kislород ajralib chiqadi. Buning sababi gidroksid ionlarining zaryadsizlanishidir.





Gidroksid ionlari parchalangan sari suvning yangi molekulalari dissotsilanaveradi: natijada anod yaqinida vodorod ionlarining kontsentratsiyasi ortib ketadi.

Elektroliz jarayonida birlamchi va ikkilamchi holatlar boradi. Elektr oqimi ta'sirida ionlarning elektron biriktirib olish yoki elektron berish hodisasi **birlamchi jarayondir**. Lekin ko'pincha, birlamchi jarayon natijasida hosil bo'lgan neytral zarrachalar **ikkilamchi jarayonga**, ya'ni kimyoviy jarayonga uchraydi. Masalan, HCl eritmasining elektrolizida quyidagi birlamchi va ikkilamchi jarayonlar sodir bo'ladi:

Birlamchi jarayon



Ikkilamchi jarayon



Elektroliz vaqtida sodir bo'ladijan ikkilamchi jarayonlar turli moddlarni elektrikimyoviy usul bilan olishda, metallarni zanglashdan saqlash uchun zanglamas metallar bilan galvanik usulda qoplashda (nikellash, kadmiylash va hokazo) katta ahamiyatga ega, masalan, katod sifatida sirtiga nikel yuritilishi kerak bo'lgan jism, anod sifatida esa nikel metall olinib  $\text{NiSO}_4$  eritmasi elektroliz qilinsa, nikel ajralib chiqqanligidan katod sirti nikel metali bilan qoplanadi, anod esa erib  $\text{NiSO}_4$  ga aylanadi. Natijada, eritmadiagi  $\text{NiSO}_4$  ning miqdori o'zgarmay qoladi.

**Eritmaning elektrolizi.** Eritma elektrolizida tuz molekulalari bilan birqalikda suv (erituvchi) molekulalari ishtirok etgani uchun ancha murakkabdir. Eritmada boradigan elektroliz sxemasini tuzayotganda quyidagi qoidalarni bilish zarur:

### Katod jarayonlari uchun:

1. Agar eritmada oksidlanish potentsiali vodorodning oksidlanish potentsialidan kichik bo‘lgan kationlar (aktivlik qatorida  $\text{Li}^+$  dan  $\text{Al}^{+3}$  gacha) bo‘lsa, katodda suv molekulalari qaytarilib, bu metall ionlari eritmada o‘z garmasdan qoladi.
2. Agar eritmada standart oksidlanish potentsiali vodorodnikidan kichik, lekin Al nikidan katta bo‘lgan kationlar ( $\text{Al}^{+3}$  dan  $\text{Pb}^{+2}$  gacha) bo‘lsa, u xolda katodda bir vaqtning o‘z ida xam vodorod ionlari, xam shu metall kationi qaytariladi.
3. Agar eritmada standart oksidlanish potentsiali vodorodnikidan yuqori bo‘lgan kation bo‘lsa, katodda avval shu kation qaytariladi (aktivlik qatorida bu kationlar  $\text{H}^+$  - dan keyin turibdi).

### Anod jarayonlar uchun:


1. Agar eritmada kislrodsiz kislotalarning anionlari;  $\text{Cl}^-$ ,  $\text{Br}^-$ ,  $\text{J}^-$ ,  $\text{F}^-$ lar bilan birga  $\text{H}_2\text{O}$  - ionlari mavjud bo‘lsa, anodda avval kislrodsiz kislota anionlari oksidlanadi.
2. Agar eritmada kislrodli kislota anionlari:  $\text{SO}_4^{-2}$ ,  $\text{CO}_3^{-2}$ ,  $\text{PO}_4^{-3}$ ,  $\text{NO}_3^-$ lar  $\text{H}_2\text{O}$  bilan birgalikda kelsa, u xolda anodda  $\text{H}_2\text{O}$  molekulalari oksidlanadi, chunki bu anionlarning oksidlanish potentsiallari suv molekulasining oksidlanish potentsialidan katta.

Ba’zi xollarda elektrolizni elektroliz qilinayotgan tuz tarkibiga kirgan metallardan yasalgan elektrodlar yordamida ham o‘tkaziladi. Bunday elektrolizni "eruvchan anod" elektrolizi deyiladi. Bunga quyidagi elektroliz misol bo‘ladi (1-rasm).



Masala:  $\text{NiSO}_4$  eritmasini nikel elektrodlari yordamida elektroliz qilindi. Shu elektrolizning sxemasini tuzing.

Echish: eritmada  $\text{Ni}^{+2}$ ,  $\text{SO}_4^{-2}$  ionlari va suv molekulalari bor.

Elektrodlarga kuchlanish berilganda nikeldan yasalgan anod eriy boshlaydi, yan’ni nikel atomlari oksidlanib eritmaga nikel ionlari xolida o‘ta boshlaydilar:



Eritmadagi nikel ionlari katodga tortilib qaytarila boshlaydi:




1-rasm.

1-rasmda mis xloridi eritmasining elektroliz sxemasi.

Bunda anod erib qancha ionlarini xosilqilsa, shuncha  $\text{Ni}^{+2}$  ioni katodda qaytarilib nikel metalini xosil qiladi. Eritilgan tuz miqdori va ionlari elektroliz paytida o‘zgarishsiz qoladi.

Aytilganlarni sxema ko‘rinishida yozsak:



Elektrolizning umumiyligi tenglamasi:



Ma’lumki, elektroliz paytida elektrodlarda ajralib chiqadigan moddalar miqdorini xisoblash mumkin. Elektroliz paytida ajralib chiqadigan moddalar miqdorini Faradey qonunlari asosida olingan formulalar yordamida xisoblanadi.

Faradeyning birinchi qonuniga binoan: elektroliz natijasida elektrodlarda ajralib chiqadigan moddalar miqdori eritmadan o‘tgan elektr miqdori ( $J \cdot t$ ) ga to‘g’ri proportionaldir.

Faradeyning ikkinchi qonuni quyidagicha ta’riflanadi: elektrodlarda ajralib chiqadigan moddalar miqdori shu modda (ion) larning kimiyoiy ekvivalentiga to‘g’ri proportsionaldir. Modda miqdoriga tegishli bo‘lgani uchun ikkala qonuni umumlashtirib elektrodlarda ajralib chiqadigan modda miqdorini xisoblash mumkin:

$$m = I \cdot t \cdot E/F$$

Bu erda: m - ajralib chiqatgan modda massasi, g; kg.

I - tok kuchi, A, t - vaqt, sek

F - Faradey soni = 96500 Kl.

E - kimiyoiy ekvivalent,

Bu formulani gazsimon moddalar uchun xam yozish mumkin;

$$V=I \cdot t \cdot V_e/F$$


Bu erda: V - ajralib chikqan gazning xajmi, ml; l.  $V_e$  - ajralib chikqan gazning ekvivalent xajmi. Formulalarda keltirilgan  $I \cdot t$  ko‘paytma eritmadan o‘tayotgan elektr miqdorini ifodalaydi va Q xarfi bilan belgilanadi. Agar 1 Kl elektr miqdori elektrolizerdan o‘tsa elektrodlarda  $E = E/F$  miqdor modda ajralib chiqadi. Bunda E - moddaning elektrokimiyoiy ekvivalenti deyiladi. Uning ma’nosи, eritmadan 1 Kl elektr miqdori o‘tganda ajralib chiqadigan moddalar massasidir.

Masala: Rux xlorid eritmasidan 1 soat davomida 0,6 amper tok kuchi o‘tganda elektrodlarda ajralib chiqadigan moddalar miqdorini xisoblang.


Yechish: Avval elektroliz sxemasini tuzamiz;



Bu tuz tarkibidagi  $\text{Zn}^{+2}$  kation oksidlanish potentsiali qatorida vodorod bilan Al o‘rtasida joylashgan  $E = -0,76$  v. Shu sababli katodda bir vaqtda rux ionlari va vodorod ionlari (aniqrogi suv molekulalari) qaytaraladi. Anodda esa  $\text{Cl}^-$  ionlari oksidlanadi:



Elektrolizning umumiyligi tenglamasi:



Demak, katodda rux metali va vodorod, anodda esa xlor gazi ajralib chiqadi. Rux metalining massasini vodorod va xlor gaz xolida chikqani uchun ularning xajmini xisoblaymiz:

$$m_{\text{Zn}} = \frac{\varrho \cdot J \cdot t}{F} = \frac{32.5 \cdot 0.6 \cdot 60 \cdot 60}{96500} = 0.727 \text{ g}$$

$$V_{\text{H}_2} = \frac{V \cdot J \cdot t}{F} = \frac{11.2 \cdot 0.6 \cdot 60 \cdot 60}{96500} = 0.250 \text{ l}$$

$$V_{\text{Cl}_2} = \frac{V \cdot J \cdot t}{F} = \frac{11.2 \cdot 0.6 \cdot 60 \cdot 60}{96500} = 0.250$$

### **Kuchli elektrolitlar nazariyasi.**

Elektrolitik dissotsilanish nazariyasining kuchli elektrolitlar uchun qo`llanilishi haqidagi masalani o`rganish natijasida:

1. Kuchli elektrolitlar faqat suyultirilgan eritmalariga emas, balki har qanday yuqori konsentratsiyali eritmalarida xam faqat ionlar xolatida mavjud bo`ladi, chunki kuchli elektrolitlarga oid moddalar qattiq holatda xam musbat va manfiy ionlardan tuzilgan kristallar shaklida mavjud, degan xulosaga kelindi.
2. Eritmalarida ionlar bir-biriga elektrostatik ta`sir ko`rsatadi: musbat ionlar o`ziga manfiy ionlarni tortadi, boshqa musbat ionni o`zidan uzoqlashtirishga intiladi.

Elektrolitlarning eritmalarida musbat va manfiy ionlar bir-biri bilan birlashib ion juftlar hosil qiladi. Suvning dielektrik konstantasi katta qiymatga ega bo`lganligi uchun suyultirilgan suvli eritmalarida qarama-qarshi zaryadli ionlararo kuchlari zaiflashadi, chunki  $F = \frac{e^+ \cdot e^-}{\epsilon r^2 \cdot 4\pi \epsilon_0}$  formulaga asosan tortishuv kuchi ( $F$ )

muhitning dielektrik konstantasi ( $\epsilon$ ) ga nomunatosibdir. Agar suvga dioksan qo`shilsa, ion juftlarining hosil bo`lishi kuchayadi. Chunki bu erituvchining dielektrik konstantasi suvnikidan kichik.

## **Metallar korroziyasi**

Hammaga ma'lumki, temir buyumlar havo va nam ta'sirida zanglaydi. Buning natijasida metall qurilmalar, mashina qismlari asta-sekin yemiriladi va har xil asbob uskunalar yaroqsiz bo'lib qoladi. Bu har yili xalq xo'jaligiga katta zarar keltiradi.

Metallarning yemirilish jarayoni korroziya (lotincha corrodere — yemirilish) deb ataladi.


*Korroziya—metallar va ular qotishmalarining tashqi muhit ta'siridan kimyoviy va elektrokimyoviy yemirilishidir.* Yemirilishning sodir bo'lish mexanizmiga ko'ra, korroziyaning ikki xil—kimyoviy va elektrokimyoviy turlari bo'ladi.

*Metallning tevarak-atrofdagi muhitda oksidlanib yemirilishida sistemada elektr toki paydo bo'lmasa, bunday yemirilish kimyoviy korroziyalanish deyiladi.* Bu holda metall muhitning tarkibiy qismlari—gazlar va noelektrolitlar bilan reaksiyaga kirishadi.


Kimyoviy korroziyalanishning gaz muhitida korroziyalanishi deyiladigan turi, ya'ni metallarning havo kislороди bilan birikishi katta zarar keltiradi. Temperatura ko'tarilganda ko'pchilik metallarning oksidlanish tezligi juda ortib ketadi. Masalan, temirda 250—300 °C dayoq oksidlarning ko'rindigan pardasi hosil bo'ladi. 600 °C va undan yuqorida metallarning sirti temirning turli xil oksidlari: FeO, Fe<sub>3</sub>O<sub>4</sub>; Fe<sub>2</sub>O<sub>3</sub> dan iborat kuyindi qatlami bilan qoplanadi. Kuyindi temirni keyingi oksidlanishdan muhofaza qila olmaydi, chunki unda darz ketgan joylar va g'ovaklar bo'lib, ular metallga kislородning o'tishiga qarshilik qilmaydi. Shuning uchun temir 800 °C dan yuqorida qizdirilganda uning oksidlanish tezligi juda ortib ketadi. Nolektrolitlardagi kimyoviy korroziyalanishga ichki yonuv dvigatellari silindrлarining yemirilishi misol bo'la oladi. Yonilg'ida qo'shimchalar — oltingugurt va uning birikmalari bo'ladi, ular yonganida oltingugurt (IV) va (VI) oksidlarga—korrozion aktiv moddalarga aylanadi. Ular reaktiv dvigatellarning detallarini — soplo va boshqalarni yemiradi. Elektrokimyoviy korroziya eng katta zarar keltiradi. Metallning elektrolit

muhitida yemirilishida sistema ichida elektr toki vujudga kelsa, bunday yemirilish elektrokimyoviy korroziyalanish deyiladi. Bu holda kimyoviy jarayonlar (elektronlar berish) bilan birga, elektr jarayonlar (elektronlarning bir qismdan boshqa qismga o'tishi) ham sodir bo'ladi.


Elektrokimyoviy korroziyalanishga misol tariqasida xlorid kislota eritmasida (ya'ni vodorod ionlari H ning konsentratsiyasi yuqori bo'lganda) misga tegib turgan temirning korroziyalanishini keltirish mumkin. Korroziya jarayonining mohiyati. Temir va uning qotishmalari korroziyaga eng ko'p uchraydi. Bu jarayonning mohiyati shundan iboratki, temir atomlari kislorod, suv, vodorod ionlari ta'sirida asta-sekin oksidlanadi. Temir va uning qotishmalari korroziyalanishini umumiy ko'rinishda quyidagicha tasvirlash mumkin:



Odatda, kislorod oksidlovchi hisoblanadi:



Modomiki, havoda uglerod (IV) oksid, oltingugurt (IV) oksid bo'lar ekan, ularning suv bilan o'zaro ta'siridan kislotalar hosil bo'ladi. Ularning dissotsilanishidan esa vodorod ionlari hosil bo'lib, bu ionlar ham metall atomlarini oksidlaydi:



Tajriba yo'li bilan shu narsa aniqlanganki, metall boshqa kamroq aktiv metallga tegib turganda vodorod ionlari tezroq oksidlanadi.

Elektrokimyoviy korroziyani, asosan, boshqa metallarning va metallmas moddalarning qo'shimchalari yoki sirtning bir jinsli emasligi keltirib chiqaradi. Elektrokimyoviy korroziya nazariyasiga muvofiq, bunday hollarda metall elektrolitga tekkanida (elektrolit havodan adsorbsiyalangan namlik bo'lishi mumkin) uning sirtida galvanik elementlar vujudga keladi. Bunda kuchlanishi manfiyoq bo'lgan metall yemiriladi — uning ionlari eritmaga, elektronlar esa

aktivligi kamroq bo‘lgan metallga o‘tadi va bu metallda vodorod ionlari qaytariladi yoki suvda erigan kislorod qaytariladi.

Shunday qilib, elektrokimyoviy korroziyanishda (har xil metallar bir-biriga tegib turganida ham, bitta metallning sirtida mikrogalvanik elementlar hosil bo‘lganida ham) elektronlar oqimi aktivroq metalldan aktivligi kamroq metallga (o‘tkazgichga) yo‘nalgan bo‘ladi va aktivroq metall korroziyanadi. Galvanik elementni (galvanik juftni) hosil qilgan metallar standart elektr kuchlanishlar qatorida bir-biridan qancha uzoq joylashgan bo‘lsa, korroziyanish tezligi shuncha katta bo‘ladi.

Korroziyanish tezligiga elektrolit eritmasining xususiyati (muhiiti) ham ta’sir qiladi. Uning kislotaliligi qancha yuqori (ya’ni pH qiymati kichik) va tarkibida oksidlovchilar miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, korroziya shuncha tez ketadi. Korroziyanish temperatura ko‘tarilganda ham ancha kuchayadi.

Ba’zi metallarga havo kislorodi tekkanida yoki agressiv muhitda passiv holatga o‘tadi, bunda korroziyanish keskin kamayadi. Masalan, konsentrangan nitrat kislota temirni osonlik bilan passiv holatga o‘tkazadi va u amalda konsentrangan nitrat kislota bilan reaksiyaga kirishmaydi. Bunday hollarda metall sirtida zinch himoya oksid pardasi hosil bo‘ladi, u metallni muhitdan ajratib qo‘yadi.

Metallning passiv holatga o‘tishi, ko‘pincha, uning sirtida kislorod atomlarining xemosorbillangan qatlam hosil bo‘lishi bilan tushuntiriladi. Bunda kislorod atomlari metallning barcha sirtini yoki uning bir qismini qoplashi mumkin. Oson passivlanadigan boshqa metallar bilan legirlash, metall sirti yaqinida passivatorning konsentratsiyasini oshirish va boshqa omillar passivlanishiga yordam beradi.

### **Metallarni korroziyadan himoya qilish**

Metallarning korroziyadan ximoyalashning xar-hil usullari mavjud. Bu ussularni qo`llash ximoyalananadigan metallning tabiatи, ishlatalish maqsadi va o`rniga, sharoitiga bog`liq. Metallarning korroziyanishi uzlucksiz davom etadi va

zarar yetkazadi. Temirning korroziyalanishi tufayli bevosita isroflari yiliga suyuqlantirib olinadigan temirning 15—20% ga yaqinini tashkil etishi hisoblab chiqilgan. Korroziyalanish natijasida metall buyumlar o‘zining qimmatli texnik xossalari yo‘qotadi. Shuning uchun metall va qotishmalarni korroziyalanishdan muhofaza qilish usullari katta ahamiyatga ega. Ular nihoyatda turli-tuman bo‘lib, eng ahamiyatlilari quyidagilar.

**1. Metallarning himoya sirt qoplamlari.** Ular metalldan (rux, qalay, xrom va boshqa metallar bilan qoplash) va metallmasdan (lok, bo‘yoq, emal va boshqa moddalar bilan qoplash) qilinishi mumkin. Bu qoplamlar metallni tashqi muhitdan ajratib turadi. Masalan, tomga yopiladigan tunuka rux bilan qoplanadi: ruxlangan tunukadan turmushda va sanoatda ishlatiladigan ko‘pgina buyumlar tayyorlanadi. Rux qatlami temirni korroziyalashdan saqlaydi, rux temirga qaraganda ancha aktiv metall bo‘lsa ham, u oksid pardasi bilan qoplangandir. Temir buyumlar sirtini nikel, xrom bilan qoplash korroziyalanishdan muhofaza qilishdan tashqari buyumlarning tashqi ko‘rinishini chiroyli qiladi.

**2. Antikorrozion xossalarga ega bo‘lgan qotishmalar yaratish.** Po‘lat tarkibiga 12% ga qadar xrom kiritish yo‘li bilan korroziya-bardosh zanglamaydigan po‘lat olinadi. Nikel, kobalt va mis qo‘sish po‘latning antikorrozion xossalari kuchaytiradi, chunki qotishmaning passivlashishiga moyilligi ko‘payadi. Antikorrozion xossali qotishmalar yaratish—korroziya tufayli bo‘ladigan isrofgarchiliklarga qarshi kurashning muhim yo‘nalishlaridan biridir.

**3. Protektor himoya va elektr himoya.** Protektor himoya elektrolit muhitida (dengiz suvi, yerosti suvlari, tuproq suvlari va h.k.) bo‘ladigan konstruksiya (yerosti quvuri, kema korpusi) muhofaza qilinadigan hollarda qo‘llaniladi. Bunday himoyaning mohiyati shundan iboratki, konstruksiya protektor—muhofaza qilinadigan konstruksiya metaliga qaraganda aktivroq metallga ulanadi. Po‘lat buyumlarini muhofaza qilishda protektor sifatida, odatda, magniy, aluminiy, rux va ularning qotishmalaridan foydalilaniladi. Korroziyalanish jarayonida protektor anod bo‘lib xizmat qiladi va yemiriladi, bu bilan konstruksiyani yemirilishdan saqlab qoladi. Protektorlar yemirilgan sari ularni yangisi bilan almash tirib boriladi.

Elektr himoya ham shu prinsipga asoslangan. Elektrolit muhitida turgan konstruksiya bunda ham boshqa metallga (odatda, temir bo‘lagi, rels va sh. o‘.) tashqi tok manbayi orqali ulanadi. Bunda himoyalananadigan konstruksiya katodga, metall—tok manbayining anodiga ulanadi. Tok manbayi anoddan elektronlarni oladi, anod (muhofaza qiluvchi metall) yemiriladi, katodda esa oksidlovchining qaytarilishi sodir bo‘ladi.

Elektr himoyaning protektor himoyadan afzalligi bor: uning ta’sir radiusi 2000 m ga yaqin, protektor himoyaniki esa 50 m atrofida bo‘ladi.

**4.Muhit tarkibini o‘zgartirish.** Metall buyumlarning korroziya- lanishini sekinlashtirish uchun elektrolitga, korroziyani sekinlatuvchi moddalar yoki ingibitorlar deyiladigan (ko‘pincha organik) moddalar qo‘shiladi. Ular metallni kislota yemirishidan saqlash zarur bo‘lgan hollarda qo‘llaniladi. Keyingi yillarda uchuvchan ingibitorlar (boshqacha aytganda, atmosfera ingibitorlari) ishlab chiqila boshlandi. Ular qog‘ozga shimdirliladi va metall buyumlar shu qog‘oz bilan o‘raladi.

### **Galvanik va kimyoviy qoplamlar.**

Galvanik usulda olinadigan qoplamlalar asosan metallarni korroziyadan himoya qilish uchun qo‘llaniladi. Galvanik qoplamlalar himoyalash ta’siriga ko‘ra anodli yoki katodli qoplamlalar bo‘lishi mumkin. Katodli galvanik qoplamlalar asosiy qoplanadigan metllga nisbatan musbat potensialga, anodli esa manfiy potensialga ega bo‘ladi. Masalan; Fe ga nisbatan Cu,Ni,Ag qoplamlalar katodli, Zn,Cd, qoplamlari esa anodli hisoblanadi.

Katodli qoplamlalar shikastlanganda anodda asosiy metal korroziyasi boshlanadi, anodli qoplamlalar o’zi yemirilib asosiy metallni korroziyadan saqlaydi.

Galvanik qoplamlalar xromlangan, nikellangan, ruxlangan, kadmiylangan, mislangan, oksidlangan va kombinasiyalashgan usullarda olingan qoplamlarga bo‘linadi.

Xromli qoplamlar yuqori kattalikga, korroziyabardoshlik, yemirilishga qarshi xususiyatlarga ega. Xromli qoplamlardan sutsimon usulda olingan korrozion-mekanik shikastlanishlarning oldini olish uchun qo'llaniladi.

Kadmiyli qoplamlar himoya-dekorativ xususiyatlarga ega, Cr li va Zn li qoplamlar birgalikda kombinasiyalashgan usullarda qo'llaniladi.

Oksidli qoplamlar alyuminidan tayyorlangan buyumlarni korroziyadan saqlash uchun ishlatiladi. Shuningdek ketma-ket yoki bir vaqtning o'zida har xil metallar bilan singdirib olingan galvanik qoplamlar ham yuqori darajadagi korroziyadan saqlash xususiyatlarga ega.

Loyihada quyidagicha nazorat qilish ko'zda tutilgan;  
-detallarni vizual nazorat qilish, qalinligini magnit usulida aniqlash, birkish mustaxkamligini aniqlash uchun tirmash setkalarini qoplash usulidan foydalanish.

Nikel-xromli qoplama rangi yaltiroq, kumush-kulrang va kumush ko'k rangli bo'lishi kerak.

Magnit usuli sinalayotgan detal yuzasidan magnitni ajratib olish uchun ketgan kuch orqali aniqlashga asoslangan. Bunday asboblar doimiy magnitli va elektromagnitli turlarga bo'linadi. Bunda kuch prujinali dinamometrlar orqali

o'lchanadi. Bunday usulni qo'llayotganda qoplanayotgan detallar temir magnitli xossalarga ega bo'lishi kerak.

Setkali tirnash usuli sinalayotgan detal yuzasiga o'tkir po'lat uch bilan metall asosgacha 2-3 mm oraliqda 4-6 ta parallel va perpendikulyar chiziqlar chiziladi. Chiziqlar bir xil yo'nalishda chizilishi kerak. Tekshirilayotgan yuzalarda ko'chgan joylar bo'lmasligi kerak.

Qoplamlar qattiqligini o'lhashning eng aniq usuli bu olmosdan qilingan piramidani qoplama yuzasiga kichik kuch bilan botirish orqali aniqlash hisoblanadi. (2 dan 200 g gacha). Bunda o'lhashlar asboblar–mikrotvyyordomer PMT-2 yoki PMT-3 orqali amalga oshiriladi. Bu asbobda o'lchanayotganda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- belgilangan qiymatgacha kuchlanishni birtekis oshirib borish;
- berilgan kuchlanishni belgilangan vaqt ichidagi doimiyligini saqlash;
- Yo'l qo'yiladigan xatoliklar 10g dan kam bo'lмаган yuk uchun  $\pm 0,1$  g dan oshmasligi kerak.

Qoplamlarni g'ovakliligi yog' xajmiy og'irligi usuli orqali aniqlanadi. Usulning mazmuni  $1 \text{ dm}^2$  qoplama yuzasiga yutilgan yog'ning massasini topishdan iborat. Bunda oldindan o'lchab olingan namuna 1-1,15 soat mobaynida  $80^\circ\text{S}$  temperaturada yog'ga botirib qo'yiladi va olingandan keyin ortiqcha yog' artib olinib yana o'lchanadi. Shu tariqa ularni farqi topiladi.

## 12. Ekologik qism

### **Atrof muxit muxofazasi**

Insoniyat tarakkiyoti sanoatning rivojlanishiga olib kelgan. Shaxarlarning kuriishi va o'sishi, shaxar axolisining kupayishi konuniy xolda tabiat va insonning yangi turdag'i o'zaro munosabatlarini shakllantirgan. Natijada bizning zamonamizda inson kadam ietib bormagan tabiiy muxitlar faqat tropik junglilar va tog'larning baland-baland etaklarida, kisman tudrada, ximoya kilinadigan kurikxonalardagina saqlanib qolgan.

Prezidentimiz I.A.Karimov ekologik muammo tugrisida suz yuritib, «Ekologik xavfsizlik muammosi alla qachonlar milliy va mintakaviy doiradan chikib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan», degan edi. Uzbekiston mustakillikka erishgandan keyin ekologiya va tabiatni muxofaza etish masalalariga jiddiy e'tibor berila boshlandi. Ekologiya va tabiatni muxofaza etish borasida o'nlab konunlar xamda farmoyishlar e'lon qilindi, ularning ijrosi buyicha chora-tadbirlar belgilanadi. Masalan, Uzbekiston Respublikasining 1992-yil 9 dekabrdagi «Tabiatni muxofaza etish to`g`risida»-gi, 1993-yil 6 maydagi «Suv va suvdan foydalanish to`g`risida»-gi, 1994-yil 22 sentyabrdagi «Yer osti boyliklari tugrsida»-gi, 1996-yil 27 dekabrdagi «Atmosfera xavosini muxofaza etish to`g`risida»-gi, 1997-yil 26 dekabrdagi «Xayvonot dunyosini muxofaza etish va undan oqilona foydalanish tog`risida»-gi, 1997-yil 26 dekabrdagi «Usimlik dunyosini muxofaza etish va undan oqilona foydalanish to`g`risida»-gi Konunlar xamda buborada e'lon qilingan kator Prezidentimiz Farmonlari shular jumlasidandir.

Atmosfera tabiatning eng muxim elementlaridan biri bo`lib, tirik organizmning yashashi uchun juda xam zarurdir. Chunki organizm, xususan inson ovqatsiz, suvsiz birnecha kun yashashi mumkin, lekin xavosiz beshdaqqa yashaydi, xolos. Insonning ravnaqi toza xavoga bogliq ekan, Ertangi xayotning, ayniksa insonning ravnaqi toza xavoga bog`lik. Chunki xar bir kishi bir sutkada 25 kg xavo yutadi. Shuning uchun xavo ifloslanib uning kimyoviy tarkibi va fizik xossalari o`zgarishi bilan xar bir organizmning fiziologik xolati xam uzgaradi.

Atmosfera xavosiga chang asosan ikki yo‘l bilan tushadi – tabiiy jarayonlar natijasida va insonlarni ishlab chiqarish faoliyatları natijasida. Tabiiy jarayonlarga – vulqonlarning otilishi, o‘rmon yong`inlari, kosmik changning yog‘ilishi va x.k.

Changni xavoga tushiruvchi ishlab chiqarish korxonalariga quyidagilar kiradi:

- qurilish ashyolari ishlab chiqaruvchi korxonalar - 34,7 %
- IES - 29,5 %
- avtotransport - 15,8 %
- qorametallurgiya - 12,4 %
- kimiyo sanoati - 4,6 %
- ranglimetallurgiya - 2,2 %
- neftni qayta ishlash korxonalari- 0,5 %

Sanoat korxonalaridan atmosferaga tashlanayotgan changlar turli shaklga, o’lchamga, zichlikka ega bo’lganligi uchun, ularni turli usullar yordamida tozalab olinadi.

Xavoni changdan tozalashning quyidagi usullari mavyuddir,

- 1) gravitatsion usuli
- 2) yauruya inertsion va markazdan qochma kuch asosida tozalash usudi
- 3) xo‘llash usuli
- 4) filtrlash usuli
- 5) elektrostatik usul
- 6) tovush va ultratovush yordamida koagullah usuli.

Atmosfera xavosini zaxarli gazlardan tozalash jarayoni asosan gazlarni suyuqlik va qattiq jism chegara sirtlarida boruvchi kimiyo viy o`zgarishlar xisobiga olib boriladi. Zaxarli gaz moddalarning fizik-kimiyo viy xossalari, ularni ajratib olinish sharoitlariga binoan ularni tozalash uchun aksariyat xollarda quyidagi usullar qo‘llaniladi:

1. Adsorbsiya
2. Absorbsiya
3. Katalitik
4. Termik

Sanoat ishlab chiqarishning rivojlanishi, dexqonchilikni kamyolashtirilishi, daryolarga zovur suvlari tashlanishi sababli suv resurslari 70-80 yillarda ifloslanib bordi, bu jarayon xozir xam davom etmokda. 90-yillarda respublikada amalga oshirilgan tadbirlar natijasida ifloslangan sanoat 150 mlnm<sup>3</sup>dan kamroknii tashkil qiladi. Suvga ogir metallar, ftoridlar, fenollar, xlor, kaprolaktam, atseton, neft maxsulotlari va boshqalarning tushishi qora va rangli metallaurgiya, kimyo, neft kimyosi, mineral ug`itlar ishlab chikaruvchi korxonalar faoliyati bilan bog`liq. Issiklik elektrstansiyalari suv xavzalariga nixoyatda sho`r suvni tashlashi oqibatida suvning gidrokimyoviy va biologik rejimida o`zgarish sodir bo`lmokda. Madaniy-maishiy, tibbiyat muassasalari, chorvachilik fermalari chikarayotgan okava suvlari juda xavflidir.

Sanoat ishlab chiqarish, korxonalarida, qishloq xo`jaligida maishiy xizmat korxonalarida xosil bo`lgan suvlar – oqova suvlar deyiladi.

Kimyo sanoatida xosil bulayotgan oqova suvlarning tarkibi ishlab chiqarishning turiga va texnologik jarayoniga bog`liqdir.

Kimyo sanoatida suv-xomashyo, erituvchi, reaksiyon muxit, ekstragent, absorbent sifatida, moddalar, uskunalarini sovitish va isitishda, tayyor maxsulotlarni va uskunalarini yuvishda ishlatiladi. Texnologik jarayonlarda ishlatilgan suv turli xil moddalar bilan ifloslanadi. Masalan, mineral o`g`itlarni ishlab chiqarishdagi oqova suvlar kislota, ishqor va tuzlar bilan ifloslanadi: neftni qayta ishlash korxonalarning suvleri –neft maxsulotlari, yog`, moy, fenol, sirt-aktiv moddalar bilan ifloslangandir; plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish korxonalarining suvleri tarkibida monomerlar, yuqori-molekulyar birikmalar, saqich va x.k. moddalar bor.

Oqova suvlarning ifloslik darajasi quyidagi ko`rsatgichlar orqali aniqlanadi:

- 1) orgonaleptik ko`rsatgichlar (rangi, xidi, mazasi, tiniqligi va x.k.)
- 2) fizikkimyoviy ko`rsatgichlar (rX, temperatura, elektro o`tkazuvchanlik, suvning qattiqligi, qo`vishqokligi, zichligi, sirttarangligi va x.k.)
- 3) erigan organik va anorganik moddalarning miqdori, kislorodning kimyoviy (XPK) va biokimyoviy (BPK) sarflanishi

4) kolloid, mayda va yirik dispersli zarrachalarning miqdori.

Oqova suvlarning xar bir guruxiga o`ziga xos tozalash usullari mavjud bo`lib, ular quyidagi guruxlarga bo`linadi :

- 1) mexanik tozalash usullari (tindirish, filrlash, sentrfugalash);
- 2) fizik-kimyoviy usullar (flotatsiya, adsorbsiya, flokulyasiya, koagulyasiya, ekstraksiya, ion almashinish usuli);
- 3) kimyoviy usullar (neytrlash, oksidlash, qaytarish, termoooksidlash)
- 4) biokimyoviy usullar – tirik organizmlarning organik ifoslantiruvchi moddalarning oziqa sifatida iste'mol qilishiga asoslangandir.

Yuqorida keltirilgan usullar 2 turgabulinadi: regenerativ usullar – ifoslantiruvchi moddalarni suvdan ajratib olib ularni qayta ishlatishga asoslangan ; destruktiv usullar esa ifoslantiruvchi strukturasiini buzib yuborib zararsizlantirishga asoslangandir.

Tuproq uzoq yillar davomida atmosfera, gidrosfera, o'simlik va xayvonot olamining o'zaro bir-biriga uzviy bog'liq bo'lgan xolda litosferaning ustki qavatlarining uzgarishi natijasida shakllanib kelgan.

Tuproqning xolatiga omillar bilan birgalikda, inson faoliyati xam ta'sir ko'rsatadi. Tabiatda doimo tuproq qavatining suv, shamol, selokimlari va x.k. ta'siri natijasida buzib yuborilishi jarayonlari amalga oshib kelgan. Ammo lekin, tuproq xolatining global buzilishi paydo bo`lishi, asosan insonlarning turli xil xarakatlariga bog'liqdir. Insonning xoxishiga ko'ra tuproqning xarakteri o'zgartiriladi, tuproqni xosil qiluvchi faktorlar - relef, mikro iqlim o`zgaradi, dengizlar, suvomborlari, kanallar barpo etiladi, millionlab tonna grun ko`chiriladi va x.k.

Atmosferaga tashlanayotgan ifloslantiruvchi moddalarning chegaraviy mumkin bo‘lgan miqdorlarini hisoblash

1. m koeffitsienti quyidagi formuladan aniqlanadi

$$m = \frac{1}{0,67 + 0,1\sqrt{f} + 0,34\sqrt[3]{f}} = \frac{1}{0,67 + 0,1\sqrt{1.6} + 0,34\sqrt[3]{1.6}} = 0.84$$

2. f parametri quyidagi formula orqali hisoblanadi

$$f = 10^3 \frac{w^2 \cdot D}{H^2 \cdot \Delta T} = 10^3 \frac{4^2 \cdot 2.0}{20^2 \cdot 50} = 1.6$$

$f \leq 100$  bo‘lganligi uchun chiqindi issiq hisoblanadi.

D – chiqindilar manbasining diametri, m.

w - gaz-havo aralashmasi manbadan chiqishining o‘rtacha tezligi, m/s

N – manbaning yer sathidan balandligi, m

$\Delta T$ - gaz-xavo aralashmasi temperaturasi  $T_g$  bilan atrof muhitdagi xavo temperaturasi  $T_x$ lar farqi.

3.  $V_1$  - gaz-xavo aralashmasining xajmi,  $m^3/s$ , quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:

$$V_1 = \frac{\pi \cdot D^2}{4} \cdot W = \frac{3.14 \cdot 2^2}{4} \cdot 4 = 12.56 \text{ } m^3/s$$

4. n-koeffitsient  $V_m$  parametriga bog‘liq bo‘lib, quyidagi formulalardan aniqlanadi:

$V_m \geq 2$  bo‘lganligi uchun  $n=1$

5.  $V_m$  quyidagi formulaga binoan topiladi:

$$V_m = 0,65 \cdot \sqrt[3]{\frac{V_1 \cdot \Delta T}{H}} = 0,65 \cdot \sqrt[3]{\frac{12.56 \cdot 50}{20}} = 2.1$$

6. Yakka manbadan tashlanayotgan zaxarli moddaning miqdorini CHMMdan oshib ketmasligini ta'minlaydigan chegaraviy mumkin bo'lgan chiqindilar miqdori quyidagi formuladan aniqlanadi:

$$YMM = \frac{(YMM - C_\phi) \cdot H^2 \cdot \sqrt[3]{V_1 \cdot \Delta T}}{A \cdot F \cdot m \cdot n} = \frac{(0.5 - 0.2) \cdot 20^2 \cdot \sqrt[3]{12.56 \cdot 50}}{200 \cdot 1 \cdot 0.84 \cdot 1} = 6.11 \text{ g/s}$$

$S_f$  – zaxarli moddaning fonmiqdori,  $\text{mg/m}^3$ .

## ATMOSFERAGA TASHLANAYOTGAN GAZ-CHANG CHIQINDILARI VA ULARNI TOZALASH USULLARI

Atmosferaga tashlanayotgan gaz yoki chang chiqindilarining manbalari	Gaz-chang chiqindi-larning tarkibi	Chiqindilarning miqdori m <sup>3</sup> /soat		Gaz-chang chiqindilarning miqdori m <sup>3</sup> /soat		CHMC H	Qo'llanila-yotgan tozalash usullari, tozalagich jihozlar	Gaz-chang chiqindilarning rekuperatsiyasi
		Gazsimon	CHang	Atmosfera ga tozalanmas dan tashlanayot gan	Tozalashga berila-yotgan			
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Elektroliz sexi trubasi	Uchuvchan xlor, Ruda changi	10 -	- 2,1	- -	10 2,1	6,11 0,034	Absorbsiya, absorber	80 %

11-jadval

Korxonaning (sex, bo‘limning) suv bilan ta’minlanishi

Suv bilan ta’minlash manbai	Suvdan foydalanish me’yori, m <sup>3</sup> /soat		Aylanma harakatdagi suvning hajmi, m <sup>3</sup> /soat	Toza svnvi tejash, %
	Loyiha bo‘yicha	Aslida		
Vodoprovod	8.8	9.2	5.6	80

Korxonada asosan rudani yuvilishi natijasidagi oqova suvlari hosil bo‘ladi. Bunday oqova suvlarni flotatsiya usulida tozalanadi.

12-jadval

Oqova suvlar va ularni tozalash

Oqovasuvlarningturlari	Oqova suvninghajmi, m <sup>3</sup> /soat		Iflosliklartarkibi, g/l	Tozalash usullari	Tozalagich moslamalar va uskunalar	Tozalangan suvning ishlatilishyo‘llari
	Tozalana- yotgan	Tashlabyuborilayotgan				
Yuvilgan suvlar Elektrolizyordan ishlatib bo‘lingandan keyingi suv	36,94	42,81	Shlam Mineral birikmalar	Flotoreagent, Flotatsiya	Flotator	Tozalangan suv aylanma suv xarakatiga jalb qilinadi

### 13. Mehnatni muxofaza qilish

O‘zbekiston Respublikasi mexnat kodeksiga binoan (211-modda) barcha korxonalarda xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan mexnat sharoitlari yaratilgan bo`lishi kerak. Bunday sharoitlarni yaratish korxona ma’muriyatiga yuklangan, ma’muriyat zamonaviy xavfsizlik texnikasi vositalarini tadbiq qilish, ishlab chiqarish jaroxatlarini va kasbiy kasalliklarini oldini olish uchun sanitariya-gigiena sharoitlarini ta’minlashi kerak.

Mexnat sharoitining yaxshilanishi sotsial natijalarga - ya’ni mexnatkashlarning sog`lig`ini yaxshilash, uzishidan mammunlik darajasini oshirish, mexnat intizomini mustaxkamlash, ishlab chiqarish va jamoat faoliyatini oshirishga olib keladi.

Shuning uchun xam sanoat korxonalarida sifatli maxsulot ishlab chiqarish jarayoni va mexnat sharoitini yaxshilash, jaroxatlanish, kasb kasalliklarini kelib chiqarish manbalarini yo‘qotish, charchash, toliq ish bo‘lmasligiga, taluqli chora tadbirlarni qo’llashga bog‘liqdir.

Mexnat sharoitini yaxshilash davlatimizning amalga oshirayotgan asosiy va muxim ijtimoiy vazifalaridan biridir.

AO «O’zelektroapparat-Electroshield» («Uzelektroapparat – Elektroштит»), 6(10), 35, 110, 220 kV, yuqori voltli, o‘rta voltli va past voltli qurilma hamda elektr apparatlarini ishlab chiqishga xalq iste’moli mollarini sifatli va raqobatbardosh maxsulotlar loyixalarini yaratish bo‘yicha o‘z potensialiga ega. Atrof muxitni muxofaza qilish va mehnat muxofazasi bo‘yicha xalqaro ISO 9001:2008, ISO 14001:2004 i OHSAS 18001:2007 standartlarga mos ravishda faoliyat yuritadi.

Sanoat korxonalari SN-245-71 ga asosan atmosferaga chiqaradigan zaxarli chiqindilar bo‘yicha 5 sinfga bo‘linadi. Elektroliz sex 1-sinfga mansub bo‘lib, axoli va korxona orasidagi sanitar-ximoya zonasi ushbu sinf uchun SNiP-2.01.03-96, SNiP-2.09.02-85ga asosan 1000m ni tashkil etadi.

SNiP 2-01-01-83 ga asosan korxona atmosferaga turli zaxarli moddalar chiqargani uchun axoli yashaydigan tumanga nisbatan “shamol yo‘nalishi” teskari tomonga joylashtiriladi.

Korxonada boradigan texnologik jarayon uzlucksiz, ya’ni kechayu-kunduz davom etadi. Jarayon uzlucksiz bo’lgani uchun avtomatlashtirilgan.

SanPiN-0120-01 va SanPiN-122-01 ga asosan korxonada shovqinni ruxsat etilgan miqdor darajalari belgilangan. Shovqin organizmga salbiy ta’sir etgani uchun uni yo‘qotish va undan saqlanish choralar ko‘rib chiqilgan.

Korxonada yoritish kunduzi tabiiy xolda yoritiladi. Bunda yoritish yon, tepe tomondan va aralash xolatda bo‘ladi. Kechqurun esa suniy xolda yoritiladi. Bunda SNiP-2-01-05-98 ga asosan yoritgich lampalar-lyuminessent lampalardan foydalaniladi.

Korxonada shamollatish sun’iy va tabiiy yo‘l bilan amalga oshiriladi. Tabiiy shamollatishda deraza va eshikdan foydalaniladi. Sun’iy shamollatishda SanPiN 0058-96, QMQ -2.04.05.-97 GOST12.1.005-98 ga asosan ventilyatorlardan, so‘rvuchi va uzatuvchi moslamalardan foydalaniladi.

Korxonada isitish suv bug‘I yordamida amalga oshiriladi. Bunda markazlashgan isitish tizimidan foydalaniladi.

Korxonada elektrdan shikastlanishning oldini olish va ogoxlantirish uchun yerga ulanuvchi ximoya simlari joylashtirilgan. Bunday ximoya turi elektroapparatlarni, uskunalarni, mashinalar, jixozlardastgoxlar, generatorlar, metall vositalar, elektr o‘tkazadigan po‘lat quvurlarni metal sim yoki plastina orqali yerga ulash bilan amalga oshiriladi. Bunday ishlar maxsus mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi.

Korxonada ishchi va xizmatchilarni xavfsizligini ta’minlashda shaxsiy ximoya vositalaridan foydalaniladi. Shaxsiy ximoya vositalari korxona tomonidan ishchilarga bepul beriladi. Talablariga binoan shaxsiy ximoya vositalari ximoya kostyumlari, maxsus kiyimlar, maxsus oyoq kiyimlar, nafas olish organlarini ximoya qilish vositalari, boshni ximoya vositalari, qo‘lqoplar, ko‘zoynaklar, shovqindan ximoya vositalari va boshqalardan iborat.

SNiP-2.08.12.98 ga asosan korxonada sanitar-maishiy xonalar tashkil qilingan . Bunday xonalarga dam olish, ovqatlanish, kiyim almashtirish, yuvinish, chekish, onalar xonasi, shaxsiy gigiena xonalari kiradi.

SNiP-2.01.02-84, ONTP-24/86, SNiP-2.01.19-09 ga asosan korxona qo‘llanadigan va olinadigan moddalarga qarab yong‘in va portlash xavfsizligi bo‘yicha A

kategoriyaga kiradi. Xonalar portlash xavfsizligi bo‘yicha V-1a sinfga mansub, yong‘in xavfsizligi bo‘yicha esa P-11a sinfga mansub.

Korxona qurilishiga tanlangan materiallar yong‘inga, o‘tga chidamliliq bo‘lishi zarur. Yong‘inga chidamlilik darajasi SNiP-2.09.12-98, SNiP -2.01.02-04ga asosan belgilanadi. Korxona binosi temir betondan tayyorlangan konstruksiya asosida qurilgan.

Korxonada yong‘in yoki avariya sodir bo‘lganda odamlar chiqish uchun evakuatsiya yo‘llaridan foydalanadilar. Sexda kamida 2 tachiq ishyo‘li mavjud. Vodoprovod SNiP-2.04.02-86 ga bo‘yicha shaxar tizimiga ulangan. Korxona 36 soatga etadigan suv zaxirasi bilan ta’minlangan.

Korxonada yong‘inni o‘chirishga xizmat qiladigan birlamchi o‘t o‘chirish vositalari mavjud bo‘lib ularga chelak, bochka, belkurak, qumliyashik, namat, o‘t o‘chirish vositalari, gidro pulpalar va boshqalar kiradi. O‘t o‘chirishlarni OXP-10, OP-5, OU-2, OU-5, UP-2M, PSBturlaridan foydalaniladi.

Korxonada SNiP-2.04.02-84, GOST 12.2.2002-89, SNiP-2.04.09-07 ga ko‘ra yong‘indan darak berish, aloqa vositalari mavjud. Bularga yorug‘lik, tutun, issiqlik, aralash darakchilar va telefon kiradi.

Korxonada yong‘in sodir bo‘lganda uni o‘chirish va xavfni bartaraf qilish bo‘yicha o‘t o‘chirish drujinasini tashkil qilingan. Bundan tashqari 1-chi yordam ko‘rsatish xizmati xam mavjud.

Atmosferadagi elektrishni neytrallanishga uchun mo‘ljallangan tadbirlar tizimi ximoya moslamalari kompleksiga “yashindan ximoyalash” deyiladi. SNiP-2.01.03-96, ga asosan korxonada binolarni, inshoatlarni yashindan ximoya qilish maqsadida “yashin qaytargichlar” o‘rnatalgan. U yashinni qabul qiluvchi, tokni uzatuvchi va yerga ulovchi vositadan tashkil topgan.

#### 14. Fuqaro muxofazasi

Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning qonuniy asosining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari. O‘zbekiston Republikasi qonunlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va Favqulodda vaziyatlar vazirligining ko‘rsatmasi va buyruqlari tashkil etadi.

Vatanimiz Prezidenti tomonidan olib borilayotgan odilona siyosat tufayli inson manfaati, inson qadriyati eng oldingi o‘rindadir. Asosiy Qomusimiz bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosini ham inson, uning qadr-qiymati, salomatligi tashkil etadi. Insonning hayoti, yashashga bo‘lgan huquqi Konstitutsiya bilan muhofaza qilinadi.

Asosiy Qomusimizda xavfsizlik, fuqarolar muhofazasi masalalariga ham o‘rin berilgan. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 93-moddasida shunday deyiladi:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti favqulodda vaziyatlar (real tashqi xavf, ommaviy tartibsizliklar, yirik halokat, tabiiyofat, epidemiya) yuz bergan taqdirda fuqarolarning xavfsizligini ta’minlashni ko‘zlab, O‘zbekiston Respublikasining butun hududida yoki uning ayrim joylarida favqulodda holat joriy etadi, qabul qilgan qarorini uch kun mobaynida O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining tasdig‘iga kiritadi. Favqulodda holat joriy etish shartlari va tartibi qonun bilan belgilanadi.

O‘zbekistonda FVV tashkil etilgandan so‘ng o‘tgan davr mobaynida Respublika aholisini, hududlarini yirik ob’ektlar va moddiy-ma’naviy boyliklarini turli Fvlardan himoya qilishga qaratilgan qonun, qarorlar va ko‘rsatmalar ishlab chiqildi va joriy etildi.

1999 yil 20 avgustda qabul qilingan «Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to‘g‘risida»gi qonun faqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasidagi asosiy hujjatlardan biri hisoblanadi. Bu qonun 5 bo‘lim va 27 moddadan iborat.

Fuqaro muxofazasi tug‘risida (2000 yil 26 may) – 4 tabo‘limi va 23 moddadan iborat. Ushbu qonun fuqaro muhofazasi sohasidagi asosiy vazifalarni, ularni amalga oshirishning huquqiy asoslarini, davlat organlarining, korxonalar, muassasalar va

tashkilotlarning va holatlarini O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarning huquqlari va majburiyatlarini, shuningdek fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarini belgilaydi.

Odamning immunitet tanqisligi virusi bilan kasallanishning OIV kasalligining oldini olish tug‘risida (1999 yil 19 avgust) – 13 modda.

Ma’lumki, Respublikamizda mavjud bo‘lgan gidrotexnik inshootlarda avariya halokat yuz bergudek bo‘lsa, aholi hududlarimizda ma’lum miqdorda xavf tug‘dirishi mumkin. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining XV sessiyasida qabul qilingan qonunlardan yana biri «Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to‘g‘risida» deb nomlanadi. Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi tug‘risida (1999 yil 20 avgust) – 15 moddadan iborat. Ushbu qonuning maqsadi gidrotexnika inshootlarini loyihalashtirish, qurish, foydalanishga topshirish, ularni rekonstruksiya qilish, konservatsiyalash va tugatishda xavfsizlikni ta’minalash bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishda yuzaga keladigan munosabatlarini tartibga solishdan iborat.

Qonuning 15 moddasida gidrotexnika inshootlarning xavfsizligi to‘g‘risida qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo‘lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo‘lishlari belgilab qo‘yilgan.

Qishloq xo‘jalik o‘simliklarini zararkunandalar, kasalliklar va begona o‘tlardan himoya qilish tug‘risidi (2000 yil 31 avgust) – 28 modda.

Radiatsiyaviy xavfsizlik tug‘risida (2000 yil 31 avgust) – 5 bo‘lim va 28 moddadan iborat. Ushbu qonuning maqsadi radiatsiyaviy xavfsizlikni fuqarolar hayoti sog‘lig‘I va mol-mulki, shuningdek, atrof muhofaza qilishni ta’minalash bilan bog‘liq munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

Terrorizmga qarshi kurash tug‘risida (2000 yil 15 dekabr) – Qonun «Umumiq qoidalar», «Davlat organlarining terrorizmga qarshi kurash sohasidagi va holatlari», «Terrorchilikka qarshi operatsiyaning o‘tkazilishi», «Terrorchilik harakati oqibatida etkazilgan zararni qoplash va jabrlangan shaxslarning ijtimoiy reabilitatsiya» hamda «Terrorizmga qarshi kurashda ishtirok etayotgan shaxslarning huquqiy va ijtimoiy himoyasi» deb nomlanuvchi 6 bo‘limdan iborat bo‘lib, 31 moddani o‘zichiga oladi.

Xavfli ishlab chiqarish obektlarining sanoat xavfsizligi to‘g‘risida (2006 yil 28 sentyabr) – 23 modda.

AO «O'zelektroapparat-Electroshield» («Uzelektroapparat – Elektroштит»), Toshkent shaxri Tallimарjon 1-ко‘chasida joylashgan.

AO «O'zelektroapparat-Electroshield» («Uzelektroapparat – Elektroштит»), 6(10), 35, 110, 220 kV, yuqori voltli, o‘rta voltli va past voltli qurilma hamda elektr apparatlarini ishlab chiqishga xalq iste’moli mollarini sifatli va raqobat bardosh maxsulotlar loyixalarini yaratish bo‘yicha o‘z potensialiga ega. Atrof muxitni muxofaza qilish va mehnat muxofazasi bo‘yicha xalqaro ISO 9001:2008, ISO 14001:2004 i OHSAS 18001:2007 standartlarga mos ravishda faoliyat yuritadi. Korxona maxsulotlarini xorijga eksport qiladi.

Ob’ektida texnogen, tabiiy va ekologik favqulotda vaziyatlar ro‘y berishi mumkin.

Texnogen tusdagи Fvga texnologik jarayonlarni to‘liq bajarmaganligi, yirik xavfli ob’ektlar va ishlab chiqarish bilan bog‘liq yong‘in va portlashlar, ekstremistik xarakatlar, ishchilarni texnologik jarayonlarga yaxshi tushunmasligi misol bo‘lishi mumkin.

Tabiiy ofatlarga geologik xavfli vaziyatlar (zilzila, suv toshqini), gidrometrologik xavfli xodisalarga (kuchli shamol, sel)lar misol bo‘lishi mumkin.

Ekologik Fvlarga xavoga korxonadan ba’zi bir sabablar bilan chiqayotgan zaxarli gazlar misol bo‘lishi mumkin.

Korxonadagi bino va inshoatlar 10 balli zilzilaga chidamli zilzila bardosh materiallardan ya’ni temir-beton konstruksiyaga asoslangan, kontoralar pishiq g‘ishtlardan qurilgan.

Favqulotda vaziyat ro‘y berganda ishchi-xizmatchilarga va axoliga xabar berish uchun korxonaga signalizatsiyalar o‘rnatilgan. Telefonlar, xabar berish vositalari o‘rnatilgan.

Korxonada ishchilarga bepul maxsus shaxsiy ximoya vositalari: ximoya kastyumlari, maxsus kiyimlar, maxsus oyoqkiyimlar, nafas olish organlarini ximoyalash vositalari gazniqoblar KD, yoki M, respiratorlar “Lepestok”, F-62SH, hama va boshqalar, kaska, shlem, ko‘zoynaklar, shovqindan ximoya vositalari bilan taminlanadi.

Tinchlik va harbiy vaqtarda yuzaga kelgan favqulotda vaziyatlar davrida aholini qutqarish va boshqa kechiktirib bo‘lmaydigan ishlarni amalga oshirish FH organlarining

asosiy vazifalaridan biridir. Bunday tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishdan maqsad aholini ommaviy qирғиң qуollaridan himoyalash, shoshilinch tibbiy xizmat ko‘rsatish, avriya oqibatlarini qisqartirish hamda vayronalardan odamlarni olib chiqishga qaratilgandir.

Avariya qutqaruv ishlari quyidagi vazifalar orqali amalga oshiriladi.

1.FV xududlarida razvedka ishlarini olib borish hamda xarakatlanish marshrutlarini rejalashtirish;

2.Bino qismlari, vayrona uyumlari orasidan shuningdek yonayotgan, suv bosgan, tutun qoplagan bino, inshootlardan odamlarni qidirib topish va olib chiqish;

3.Axvoliga ko‘ra jabrlanganlarni guruxlarga ajratgan xolda birlamchi tibbiy xizmat ko‘rsatish hamda ambulatoriyaga yetkazish.

4.Evakuatsiya – odamlarni xavfsiz joylarga ko‘chirish sanitar ishlov berish va zaruriy ashylar bilan taminlash.

Xom-ashyo, yarim maxsulot va tayyor maxsulotlar maxsus ajratilgan omborlarda saqlanadi.Omborlarda xavfsizlik choralar ko‘riladi. Tayyor maxsulotlar granulalar ko‘rinishida omborlarda uyum-uyum bo‘lib saqlanadi. Gazlar maxsus po‘latdan tayyorlangan idish, sig‘im va balonlarda saqlanadi. Suyultirilgan va bosim ostida saqlanadigan gazlar yonish, portlashga xavflidir shuning uchun ularni kamroq miqdorda saqlab boshqa korxonalarga quvurlar orqali jo‘natishga xarakat qilinadi.

## «Ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish va avtomatlashtirish» qismi

Kimyo sanoatida texnik va texnologiyalarni rivojlantirishni, ishlab turgan va yangi qurilayotgan korxonalarini quvvatining ko`payishini nazorat qilish, boshqaruvda hisoblash texnikasini keng qo`llab, kompleks avtomatlashtirish kiritishni talab qilyapti.

Avtomatlashtirish ishlab chiqarish jarayonlarini jadallashtirish, unimdonligini oshirish va yuqori sifatli maxsulot olishni, asosiy va yordamchi texnologik jarayonlarni xavfsiz ishlashini taminlaydi. Lokak va avtomatik boshqarish sistemalari katta axamiyatga ega bo`lib, axborat va boshqarish funksiyalarini meyorida faoliyat ko`rsatishini taminlaydi.

Axborot fuksiyalarining vazifasi –axborotni texnik parametrlarini o`lchas, uzatish, tayyorlash va ko`rsatishlardan iborat.

Boshqarish funksiyalarining vazifasi –xisob va uzatish, boshqaruvchi mexanizmga tasir ko`rsatish boshqaruvidan iborat bo`lib, sifatli maxsulot olinishida berilgan qiymatlarni saqlab turishdan iborat.

Malakaviy bitiruv ishini bajarishda obyekt sifatida elektroliz vanna qurilmasi tanlab olindi. Boshqaruvchi parametr sifatida –temperatura olindi. Jarayondagi o`zgartiriladigan obyektning asosiy ko`rsatkichi:

$$T_{\max} = 60^{\circ}\text{C}; \quad T_{\min} = 40^{\circ}\text{C}; \quad T_{\text{ypt}} = 50^{\circ}\text{C};$$

miqdorda o`zgarishi mumkin, bosimni o`zgarishi chegarasi  $\Delta T = \pm 10^{\circ}\text{C}$

Boshqaruvchi obyektdagi temperaturani o`lchashdagi xatoliklarning qiymatlari (absolyut, nisbiy va keltirilgan xatoliklar) aniqlandi. Ushbu xatoliklarga mos keluvchi o`lchovni aniqlash uchun to`g`ri kelgan datchik tanlandi-temperaturani meyorlovchi asbob.

№	Ko`rsatkich	Kattalik chegarasi		Abc dA	Dinamik ko`rsatkichlar				
		A <sub>max</sub>	A <sub>min</sub>		K <sub>o6</sub>	K <sub>1</sub>	K <sub>2</sub>	T <sub>1</sub>	T <sub>2</sub>
	50	60	40	5	0.9	0.9	1	1	1

Turtki Z ning qiymati va texnologik o`tish oralig`i o`qituvchi tomonidan berilgan:

Z=0.8 teng bo`ladi.

Xisoblashni kompyuterda MATLAB dasturi asosida 2 sig`imli obyekt modelini borligini inobatga olib , biz xam temperaturani meyorlovchi qurilmadagi boshqaruv jarayoni 2 sig`imli deb qabul qilamiz.

Bunga qaraganda K=K<sub>1</sub>\*K<sub>2</sub> bu yerda - K<sub>1</sub>, K<sub>2</sub> xar bir sig`imning kuchaytirish koyfitsenti.

Demak, K= K<sub>1</sub>\*K<sub>2</sub> =0.9 K<sub>1</sub>, K<sub>2</sub> larning qiymatini tanlab, obyektga mos keluvchi qiymati olinadi.

Kompyuterda MATLAB dasturi asosida quydagi boshqarish tizimi ko`rsatkichlari olindi:


$$K_1=0.9; \quad K_2=1.$$

$$T_2=1; \quad T_1=1.$$


Obyektni optimal boshqarish uchun unga to`g`ri keladigan rostlagich tanlanadi-rostlash qonuniga binoan.

Quydagi keltirilgan blok sxemaga asosan rostlash optimal ko`rinish tanlandi, rostlagichni yiymatini aniqlashda datchik va ijrochi qurilmani kuchaytiruvchi bo`linma deb qarab 2 sig`imli obyekt PI roslagich uchun xisoblandi:

Boshqaruv tizimining kompyuter modeli “MATLAB” dasturi asosidagi blok sxemasi quyida keltirilgan:



Optimal boshqarish tizimini sintez qilish tartibi, rostlagichni tanlash, rostlagichning sozlash parametrlarini optimal qiymatlari quyida keltirilgan kompyuter modeli natijalari asosida aniqlanadi:





Rostlagich ko`rsatgichlari malum bo`lgandan so`ng , GOST dan foydalanib, texnologik jarayonni avtomatlashtirishning funksional sxemasini yani, obyektning optimal boshqarish chizmasini chizdim.

Nazorat o`lchov asboblari va avtomatika spetsifikatsiyasi

14-jadval

№	O`rnatish joyi	O`lchov asbobining nomi va tavsifi	Turi	Soni
1-1	joyida	Qarshilik termometrlari	ДТС0.25Л-Pt100.	1
1-2	joyida	Shkalasiz elektrik chiqish signaliga ega bo`lgan manometrik termometr	ДТС045- 50М.В3.60	1
1-3	shitda	Ko`rsatuvchi yozib boruvchi rostlagich	ОВЕН 2TPM1	1



16. Iqtisodiy qism.

**BITIRUV ISHINING IQTISODIY KO`RSATKICHLARNI HISOBLASHGA  
ZARUR MALUMOTLAR RO`YXATI VA MAZMUNLARI.**

1. O`rganiladigan obyektlarning qisqa tafsifnomasi: sex, korxona, bo`lim (ish rejimi, mehnat sharoiti, smena davomiyligi va boshqalar)
2. Ishlab chiarish dasturi ishlab chiarilayotgan mahsulotning xajmi, nomenklaturasi, assortimenti, rejasi(natural va qiymat holda).
3. Kapital quyulmalar: bitiruv ishining mavzusiga mos xolda, maxsulot birligi o`lchamiga hisoblangan (bino, inshoat, uskuna narxi).
4. Asosiy ishlab chiqarishdagi ishchi-xodimlarning ish haqqini hisoblash, shart jadvali, soni, stavkalari, tariff raziryadlarva ko`rsatkichlar.
5. Yordamchi ishlab chiqarishdagi ishchi hodimlarning ish haqqini hisoblash.
6. Maxsulot tannarxi kalkulyatsiyasi: reja va hisobot davrida,doimiy va o`zgaruvchan xarajatlar.
7. Texnik –iqtisodiy ko`rsatkichlar: foyda rentabllik, soxa bo`yicha kapital ko`yilmalarining iqtisodiy samaradorlik meyorlari. Zarur malumotlarni rejalashtirish buxalteriya va kadrlar bo`limidan olish mumkin.

Bitiruv ishining iqtisodiy ko`rsatkichlarni hisoblash uchun zarur bo`lgan malumotni aniqlash va taxlil maqsadida ro`yxat asosida yig`ilgan malumotlarning bir nusxasi iqtisodiy kafedrasi maslaxatchisiga olib kelish lozim.

**Texnik –iqtisodiy ko`rsatkichlarni hisoblash.**

Hisob –kitoblar ro`yxati bajariladigan ish murakabligi va xususiyatiga bog`liqdir. Yuqorida keltirilgan malumotlar o`rganiladigan texnologiyaning xamma

ko`rsatkichlariga mos bo`lgan xolda to`plangan ma`lumotlar asosida mahsulot tannarxi xisoblash uchun moddiy xarajatlar aniqlanadi. Bitiruv ishida texnologik tizimga maxsulot ishlab chiqarishni oshirish yoki sifatini yaxshilash maqsadida uskunalarni yangilash. Import xom ashyosini ishlatish va boshqa o`zgartirishlarning ko`zda tutilgan bo`lsa bu xolda iqtisodiy ko`rsatkichlarni ikki usul bilan aniqlanadi. (o`garishlarni kiritishda oldin va keyin).

Shu bilan birga bu o`zgarishlarning zarurligini va maqsadga muvofiqligini asoslash lozim.

### ISHLAB CHIQARISH DASTURI –MAHSULOTNING YILLIK ISHLAB CHIQARISH HAJM (NATURAL VA QIYMAT IFODASI)

*15-jadval*

<b>№</b>	<b>Maxsulot nomi</b>	<b>O`lcham</b>	<b>Bir o`lcham narxi so`m</b>	<b>Natural ifodasi</b>	<b>Qiymat ifodasi M.so`m</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>
	Mis buyumlari	Kg	176606	330000	58279980

Ushbu jadvalda loyixa bo`yicha ishlab chiqarishga rejalashtirilgan maxsulot turi uning o`lchami, natural ifodadagi va qiymati bo`yicha mahsulotning xajmi va 1 o`lcham mahsulotning sotiladigan narxi qayd etiladi. Hisob tartibi

5 loyixa bo`yicha mahsulotning 1 yillik hajmi qayd etiladi

6 grafa=4 grafa x 5 grafaga

## TO`G`RI MODDIY SARFLARNI OCHILISHI

№	Sarf moddalar	O`lch.	Baho	1 o`lcham mahsulot uchun		Yillik sarf	
				Miq.	So`m	Miq.	So`m
1	Xomashyo va asosiy materiallar	Kg	66000	0.14	9240	9106.4	601025040
	NiCl <sub>2</sub> · 6H <sub>2</sub> O	Kg	9240	0.03	277.2	1951	18027240
	NH <sub>4</sub> CH <sub>3</sub> COO	Kg	4204800	0.0002	840.9	13	54662400
	1, 2, 3 trispropan						
2	Yordamchi materiallar						
	Xrom angidridi (texnicheskiy)	Kg	8360	0.177	1479.7	11513	96248680
	DXTI-xrom 11	Kg	97000	0.0059	572.3	383.7	37218900
3	Ishlatiladigan chiqindi(ayriladi)						
4	Yoqilg`i (gaz, ko`mir, diz, yoqilg`i)						
5	Quvvat sarflari (el.quvvati, suv, bosim ostidagi havo,muz, bug`)	m.kvt	182000	0.38	69160	125400	22822800
<b>Jami:</b>					<b>81570.3</b>		<b>830005060</b>

**MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH TANNARXINING KALKULYASIYASI**

**Yillik ishlab chiqarish hajmi -330000 kg**

**Mahsulotning kalkulyasion o`lchami -1 kg**

*17-jadval*

№	Sarf moddalar	Sarf qiymati	
		1 o`lcham mahsulot uchun so`m	Yillik hajmi, M.so`m
1	2	3	4
1.	To`g`ri moddiy sarflar	69160	22823
2.	Mehnatga doir to`g`ri sarflar, shu jumladan :	22935	7568000
a)	Ishlab chiqarish ishchilarning ish	18799	6204000
b)	haqqi		
	Sug`urta ajratmalari (yagona ijtimoiy to`lov -22%)	4136	1365000
3.	Materialga doir yondosh sarflar	--	--
4.	Mexnatga doir yondosh sarflar	--	--
5.	Asosiy fondler amortizasiysi	47263	15597000
6.	Boshqa (shu jumladan ustama) sarflar	18326	6047000
	Ishlab chiqarish tannarxi	157684	52035720
	Davr xarajatlari	18922	6244260
	Umumiylar	176606	58279980
	Foyda	37087	12239710
	Mahsulot rentabelligi	21	

## ASOSIY IQTISODIY KO`RSATKICHLAR HISOBI

<b>Nº</b>	<b>Ko`rsatkichlar</b>	<b>O`lcham</b>	<b>Loyiha bo`yicha</b>
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>1.</b>	<b>Yillik ishlab chiqariladigan mahsulot hajmi a) natural ifoda</b>	<b>Kg</b>	<b>300000</b>
<b>2.</b>	<b>1 o`lcham mahsulotning elektroliz jarayoni tannarxi</b>	<b>So`m/kg</b>	<b>157684</b>
<b>3.</b>	<b>Yillik maxsulotning tannarxi</b>	<b>Ming so`m</b>	<b>52035720</b>
<b>4.</b>	<b>Yillik foyda</b>	<b>Ming so`m</b>	<b>12238710</b>
<b>5.</b>	<b>Mahsulot rentabelligi</b>	<b>%</b>	<b>21</b>
<b>6.</b>	<b>1 ishlovchining o`rtcha oylik ish haqqi</b>	<b>Ming so`m</b>	<b>797</b>
<b>7.</b>	<b>1 ishchining o`rtacha ish haqqi</b>	<b>Ming so`m</b>	<b>807</b>

17. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. I. Karimov. Mamlakatimizni demokratik yangilash va modernizatsiya qilishga qaratilgan taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirish bosh maqsadimiz..
2. I.A. Karimov. "Mamlakatni modernizastiya qilish va kuchli fuqorolik jamiyatini barpo etish — ustuvor maqsadimizdir. Toshkent. 2010 y.
3. Galvanicheskie pokritiya v mashinostroenii. Spravochnik/Pod red. Shlugera M.I. M.: «Mashinostroenie», 1985.
4. Kudryavtsev V.T. Elektroliticheskie pokritiya metallami. M.: «Ximiya», 1979.
5. Yampolskiy A.M. Ilin V.A. Kratkiy spravochnik galvanotexnika. L.: «Mashinostroenie», 1981.
6. Layner V.I. Zashchitnie pokritiya metallov. M.: «Mashinostroenie», 1974.
7. Yampolskiy A.M. Mednenie i nikelirovanie. L.: «Mashinostroenie», 1977.

**Internet ma'lumotlari:**

1. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli luati, 2014, UNDP DDI: Programme [www.lugat.uz](http://www.lugat.uz), [www.glossaiy.uz](http://www.glossaiy.uz)
2. O'zbek internet resurslarining katalogi: [www.uz](http://www.uz)
3. Axborot resurs markazi <http://www.assc.uz/>
4. [www.google.ru](http://www.google.ru)
5. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)